

## Istiqlol yillarida erishgan yutuqlarimiz fakt va raqamlarda

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(65 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(65 KB\)](#)



*O'zbekiston Respublikasini mustaqillik yillarida iqtisodiy - ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari to'g'risidagi statistik to'plam chop etildi.*

Eng ulug', eng aziz bayram - O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma yilligi arafasida Davlat statistika qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligi «O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari» statistik to'plamini nashrdan chiqardi. Mazkur to'plamda mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish natijalari atroflicha tahlil qilinib, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish borasidagi eng muhim yutuqlar o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov kitobxonlarga murojaatida, shu yillar davomida bosib o'tilgan murakkab yo'limizga nazar tashlar ekanimiz, O'zbekistonni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha erishilgan marralar va natijalarni xolisona baholash, mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki kunlarida qanday ahvolda bo'lgani, iqtisodiyotimiz rivoji va xalqimizning turmush darajasi qanday sur'atlar bilan oshib borganiga tanqidiy nazar tashlash zarurligini ta'kidlaydi. Istiqlol yillarida O'zbekistonni iqtisodiy rivojlantirish sur'atlari - iqtisodiyotning mafkuradan xoliligi va siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchi vazifasini o'z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirishdan iborat besh mashhur tamoyilga asoslangan markazlashtirilgan-rejali bozor iqtisodiyotidan ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha «o'zbek modeli»ning nechog'lik samaradorligi, to'g'riligi va hayotiylikni yaqqol namoyon etdi. To'plamda aniq ko'rsatkich va faktlar vositasida yigirma yillik mustaqil rivojlanish davrida qancha qiyinchiliklar, muammolar, tahdid va sinovlarni yengib o'tishga to'g'ri kelganiga qaramay, O'zbekistonda iqtisodiyotda izchil o'sish sur'atlari va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash, mamlakatning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yuksaltirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholi hayot sifati va darajasini oshirish bo'yicha keng ko'lamli va bir-biri bilan o'zaro bog'liq tub o'zgarishlar hayotga izchil tatbiq etilgani aniq misollar asosida ko'rsatib berilgan. Bu o'rinda yigirma yil mobaynida respublika yalpi ichki mahsuloti xarid qilish qobiliyati bo'yicha 3,4 barobar, ya'ni 27,1 milliard dollardan 92,3 milliard dollarga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi esa 3 barobar oshganini aytib o'tish kifoya. To'plamda respublikamizning yetakchi tarmoqlari va umuman iqtisodiyotini rivojlantirish tendensiyalari, uning tarkibi va boshqaruv tizimidagi sifat o'zgarishlari tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. Mustaqillik yillarida tizimli tarkibiy tub o'zgarishlarning izchil amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston iqtisodiyoti bir yoqlama, asosan xomashyo yetkazib berish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan mamlakatdan iqtisodiyotning zamonaviy industrial sektori, yuqori texnologiyali tarmoqlar va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish alohida o'rin tutadigan, diversifikatsiyalashgan ishlab chiqarish tuzilmasiga ega davlatga aylandi. Shu davr mobaynida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ulushi 17 foizdan 24 foizga, xizmatlar ulushi 34 foizdan 49 foizga oshdi. Avtomobilsozlik, neft-gaz-kimyoy, farmatsevtika, zamonaviy oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati kabi yangi iqtisodiyot tarmoqlari tashkil qilindi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarkibida chuqur islohotlarning amalga oshirilishi, yerdan foydalanishning ijara shakliga asoslangan bozor munosabatlariga o'tish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining zamonaviy infratuzilmasini tashkil etish g'alla mustaqilligiga erishish hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi umumiy hajmini 1,8 barobar oshirish imkonini berdi. Natijada istiqloq yillarida barqaror paxta yetishtirishni ta'minlash bilan bir vaqtda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarkibida paxtaning ulushi 47,7 foizdan 11,1 foizga kamaydi, g'alla yetishtirish hajmi 3,7, go'sht yetishtirish 1,9 barobar o'sdi. To'plamda istiqloq yillarida O'zbekistonda mutlaqo yangi bank-moliya tizimi yaratilgani aks ettirilgan. Soliq yukini izchil kamaytirish, erkin tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga qaratilgan soliq siyosatining amalga oshirilishi 2005 yildan boshlab defitsitsiz davlat budjetini shakllantirishni ta'minlash bilan birga iqtisodiyotni barqaror va jadal rivojlantirish, xo'jalik subyektlari daromadini oshirish hamda ularning investitsiya jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Shu yillar mobaynida ko'plab soliq stavkalari 1,5-2 barobarga kamaytirildi, davlat budjeti tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun sarflanadigan xarajatlar ulushi mustaqillik yillarida 31,5 foizdan 59 foizgacha ko'paydi. To'plamda mamlakatimiz bank tizimini rivojlantirish bo'yicha keltirilgan ko'rsatkichlar yigirma yil ichida keng tarmoqli tijorat banklari tashkil etilgani, ularning kapitali va resurs bazasi uzluksiz ko'payib borayotgani, investitsiya faoliyatida bank tizimining ishtiroki kengayayotgani, aholining banklarga bo'lgan ishonchi ortayotgani natijasida banklarda depozitlar o'sayotganidan yorqin dalolat beradi. Ayni paytda barcha kreditlarning 75 foizdan ortig'ini yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashga yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari tashkil qiladi. O'zbekiston banklariga yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan barqarorlik reytinglari ularning yuqori darajada moliyaviy mustahkamligini tasdiqlaydi. Qulay investitsiya muhitini yaratish va faol investitsiya siyosatini amalga oshirish mamlakatimizni iqtisodiy

rivojlantirishning muhim omiliga aylandi. Bu esa, o'z navbatida, istiqlol yillarida har yili o'zlashtirilayotgan kapital qo'yilmalar hajmini 11,6 barobar oshirish, moliyalash manbalari va foydalanish yo'nalishlari bo'yicha ularning tarkibini sifat jihatidan o'zgartirish imkonini berdi. 1990 yilda barcha investitsiyalarning 46,3 foizini davlat budjeti mablag'lari tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda jami kapital qo'yilmalarning 57,9 foizini markazlashtirilmagan manbalar, 29,1 foizini esa xorijiy investitsiyalar ta'minladi. Bundan tashqari, shu davr mobaynida ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar 58,3 foizdan 73,5 foizgacha ko'paydi. Mustaqillik yillarida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi, Qo'ng'iro't soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, Asaka va Samarqand shaharlaridagi avtomobil zavodlari kabi yirik sanoat obyektlari, avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqaradigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yigirmadan ortiq korxonalar, o'nlab zamonaviy to'qimachilik komplekslari va ko'plab boshqa korxonalar foydalanishga topshirildi. To'plamga kiritilgan materiallarda istiqlol yillarida respublikamiz jahon xo'jalik aloqalari tizimiga bosqichma-bosqich borgani aks etgan. Shuni unutmash kerakki, so'nggi yigirma yil ichida jahon iqtisodiyoti qator tanazzullar, jumladan, 1997-1998 yillardagi jahon moliyaviy inqirozi, fond va tovar bozorlaridagi ko'plab keskin pasayishlar, shuningdek, 2008 yilda boshlangan va ayni paytgacha davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini boshdan kechirdi. Biroq ushbu murakkab sharoitlarda ham bizning yosh iqtisodiyotimiz tashqi ta'sirlarga nisbatan o'zining mustahkamligi va barqarorligini namoyish qildi, Inqirozga qarshi choralar dasturining o'z vaqtida va aniq maqsadga yo'naltirilgan tarzda amalga oshirilishi ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish hamda eksportchi korxonalar raqobatbardoshligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasi 27,1, shu jumladan, eksport hajmi 29,6 barobar oshdi, shu davr ichida tashqi savdo aylanmasi hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6 foizdan 56,1 foizgacha o'sdi. O'zbekiston asosan xomashyo yetkazib berib, tayyor mahsulot olib kelinadigan mamlakatdan ishlab chiqarishlarni texnik va texnologik modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan yuqori texnologik asbob-uskunalarni chetdan olib kelib, eksportga yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar chiqaradigan davlatga aylandi. To'plamda keltirilgan mustaqillik yillarida respublikani iqtisodiy rivojlantirish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan istiqlolning dastlabki yillarida ilgari surilgan va bozor iqtisodiyotining asosi hisoblangan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlab bergan xususiy mulk tuzilmasidagi tub o'zgarishlar mamlakat iqtisodiy salohiyatini ochib berish, aholi keng qatlamlarining iqtisodiy faolligini oshirishda muhim omil bo'ldi. Keng ko'lamli xususiyashtirish jarayonining amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotning nodavlat sektori yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishda, iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari va aholi bandligini ta'minlashda muhim o'rin egalladi. Yalpi ichki mahsulotning 52,5 foizini ishlab chiqarayotgan va jadal rivojlanib borayotgan kichik biznes haqli ravishda mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda yetakchi rol o'ynamoqda. To'plamda keltirilgan statistik ko'rsatkichlar, raqam va faktlar tahlili ijtimoiy soha, aholining o'rtacha umr ko'rishi va turmush darajasidagi ijobiy o'zgarishlar istiqlol yillarida mamlakatimizni tubdan isloh etish va modernizatsiya qilish bo'yicha har tomonlama puxta hamda chuqur o'ylangan dasturni amalga oshirish samaralari ekanini ifodalaydi. Mustaqillik yillarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, sog'liqni saqlash tizimini kompleks isloh qilish va uning infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida aholining o'rtacha umr ko'rishi 67,2 yoshdan 73,1 yoshga uzaydi, onalar va chaqaloqlar o'limining barqaror ravishda uch baravardan ortiq kamayishiga erishildi. Shu davrda aholi jon boshiga real pul daromadlarini, avvalo, xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar evaziga 3,7 barobar oshirish ta'minlandi. Ayni paytda xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar aholi umumiy daromadining 47 foizini tashkil etmoqda. Daromadlarning oshishi bilan bir qatorda aholining iste'mol xarajatlari tarkibida ham sifat o'zgarishlari ro'y berdi, jon boshiga o'rtacha go'sht, sut, sabzavotlar, kartoshka, mevalar kabi muhim oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish ko'paydi. Sifatli nooziq-ovqat tovarlaridan foydalanish, ayniqsa, murakkab maishiy texnika, kompyuterlar, avtomobillar, shuningdek, turli xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi ham o'sdi. Bunga o'tgan yillar davomida keng turdagi iste'mol tovarlarini o'zimizda ishlab chiqarish va maishiy xizmatlarni tashkil etish, ya'ni ularni tegishli ravishda 4,7 va 8,3 barobarga oshirish hisobiga erishildi. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish imkonini bergan Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish mamlakatimizni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim yo'nalishiga aylandi. 12 yillik majburiy ta'limga o'tish, 1,5 mingdan ortiq kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni barpo etish iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlamoqda. To'plamda istiqlol yillarida qo'lga kiritilgan yekunlar va natijalar tahlili bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan mamlakatimizni yanada isloh etish va modernizatsiya qilish bo'yicha strategik vazifalardan kelib chiqqan holda, 2011-2015 yillarda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda prognoz ko'rsatkichlari ham batafsil bayon etilgan muhim ahamiyatga egadir. Iqtisodiyotimizni jadal va muvozanatli rivojlantirishni ta'minlash, chuqur tarkibiy tub o'zgarishlarni, iqtisodiyot yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya hamda diversifikatsiya qilishni davom ettirish, biznes yuritish uchun yanada qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega yuqori texnologik, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni, avvalambor, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash hamda iqtisodiyotimizning raqobat borasidagi boshqa ustunliklaridan foydalanish asosida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni o'zlashtirish O'zbekistonni zamonaviy taraqqiy ettirishning strategik ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. 2011-2015 yillarda jami investitsiya hajmi 77,4 milliard dollar bo'lgan sanoat, infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan to'rtta bir-biri bilan o'zaro bog'liq strategik dasturning amalga oshirilishi, bank-moliya tizimini isloh qilish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi va yalpi ichki mahsulotni 1,5 barobar ko'paytirishni ta'minlaydi. Iqtisodiyotda tarkibiy tub o'zgarishlarni faol davom ettirish yaqin yillarda yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ulushini, birinchi navbatda, energetika, neft-gaz-kimyo, kimyo, to'qimachilik va yengil sanoat, rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik, farmatsevtika, zamonaviy qurilish hamda pardozlash materiallari ishlab chiqarish kabi ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish hisobiga 24 foizdan 28 foizga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, kelgusi yillarda ijtimoiy soha va xizmat ko'rsatish sektori yanada ravnaq topadi, infratuzilma loyihalari amalga oshirilib, turar-joy obyektlari, shu jumladan, qishloq joylarda foydalanishga topshiriladi. To'plamda qayd etilganidek, keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni davom ettirish, mavjud resurslar va imkoniyatlarni jalb etish, islohotlarni erkinlashtirish va chuqurlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirish, aholi hayot sifati va jami daromadini bosqichma-bosqich ko'paytirib borish, pirovard natijada, o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadimizga erishish - iqtisodiy jihatdan rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga qo'shilish hamda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash imkonini beradi. Mamlakatimizning yetakchi iqtisodchilari, ilmiy-tadqiqot institutlari ishtirokida tayyorlangan ushbu to'plam, birinchi navbatda, yoshlarda, ya'ni kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalarida katta qiziqish uyg'otishi, keng doiradagi mutaxassislar, olimlar, o'qituvchilar, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari uchun foydali qo'llanma bo'lishi shubhasiz.

31.08.2011 19:00 da elon qilingan, marta korib chiqildi